

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY MOSLASHTIRISH BO'YICHA FAOLIYATNING AYRIM JIHATLARI

Xabibullaev Ibrohim

IIV Akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20675987>

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, takroriy jinoyatlarning oldini olish va munosib turmush sharoiti bilan ta'minlashga qaratilgan muhim davlat siyosati hisoblanadi.

Bu boradagi faoliyatni takomillashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar va amaliy chora-tadbirlarni qamrab oladi:

1. Ijtimoiy-moddiy va huquqiy yordam berish: Ozod etilgan fuqarolarning bandligi, turar joyi va ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi idoralararo komissiyalar tomonidan «**dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi**» berish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu paket ularga muayyan bir yo'nalishdagi (tadbirkorlik, hunarmandchilik) loyihalarni moliyalashtirish uchun ko'mak beradi.

2. Zamonaviy kasb-hunar va raqamli ko'nikmalarni o'rgatish: Jazoni o'tash davridayoq mahkumlarni jamiyatga qaytarish maqsadida «*Ikkinchi imkon*» kabi milliy loyihalar joriy qilingan. Ushbu dasturlar doirasida 18-30 yoshdagi mahkumlar muassasalarda 8-12 oylik intensiv o'quv kurslari orqali zamonaviy raqamli kasblar (IT), tadbirkorlik va xorijiy tillarga o'qitilmoqda¹.

3. Ishga joylashtirish va kvotalash: Ozod etilgan shaxslarni ishga qabul qiluvchi korxona va tashkilotlar uchun mahalliy hokimliklar tomonidan belgilangan miqdorda **zaxira (kvota) o'rinlari** ajratiladi. Bundan tashqari, ularni reabilitatsiya qilish markazlari bevosita shaxs ozodlikka chiqqunga qadar uning ish va yashash sharoiti bo'yicha ma'lumotlarni to'plab, hududiy bandlik boshqarmalari bilan hamkorlikda ishga joylashishga yo'llanma beradi².

4. Psixologik va tibbiy yordam: Shaxs ozodlikka chiqqanidan so'ng stressni yengib o'tishi va jamiyatga moslashishi uchun reabilitatsiya markazlari orqali malakali psixolog, huquqshunos va shifokorlar xizmatlari ko'rsatiladi. Ularga jamiyatda o'z huquq va majburiyatlarini to'g'ri tushunishi uchun maslahatlar beriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.03.2026 yildagi PQ-117-son

² I.S.Nasirov, F.M.Ma'murov; "Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni ozodlikka tayyorlash va ijtimoiy moslashtirish faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi maqola, 2025-y.

5. Davlat va nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy sherikligi: Sohadagi ishlarni takomillashtirishda Ichki ishlar vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahallalar hamda Fuqarolik jamiyati institutlarining uzviy hamkorligini mustahkamlash talab etiladi. Bu jamoatchilik nazoratini o'rnatish va fuqaroning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish (profilaktika) imkoniyatini beradi.

Jinoiy jazolarni o'tab bo'lganlar bilan ishlash tizimini yanada ochiqroq va ortiqcha rasmiyatchilikdan holi bo'lishi, axloq tuzatish va jazoni o'tab bo'lgandan keyin jamiyatga to'liq moslashtirishga yo'naltirilishi kerak. Jazoni ijro yetish va undan keyingi tizimni isloh qilish kontekstidagi yetakchi g'oyalardan biri mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish hisoblanadi. Bu borada muayyan tashkiliy va qonunchilik tashabbuslari allaqachon amalga oshirilgan. Biroq, jazoni ijro yetishdan keyingi amaliyotda duch kelinadigan muammolarning murakkabligi bu tizim ishidagi shaxsiy tuzatishlar haqida emas, balki yangi yondashuvlar, yangi mafkura va huquqiy tartibga solish mexanizmlarini shakllantirish haqida gapirishni talab qiladi. Mahkumlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari, jumladan, kam ta'minlangan, ishsiz, uy-joy ehtiyojmand yoki tibbiy yordamga muhtoj ayollar ham alohida e'tiborga loyiqdir. "Qayta ijtimoiylashtirish" atamasi shaxsning huquqiy jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga urinishini anglatadi. Jazodan ozod etilganlar uchun bu jarayon ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo'lgan paytdan boshlab boshlanadi va ular shaxsining kognitiv, hissiy va xulq-atvor sohalariga ta'sir qiluvchi murakkab jarayondir. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayoti va oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi hamda yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlarning ijtimoiy-mehnat rehabilitatsiyasini amalga oshirish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar, jumladan xotin-qizlarni ijtimoiy moslashtirish va rehabilitatsiya qilish sohasidagi ishlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni huquqlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish huquqbuzarliklar



profilaktikasining asosiy vazifalaridan biridir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi 543-sonli "Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va maxsus komendatura hisobidan chiqqan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish markazlari tashkil etildi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy moslashuviga amaliy ko'maklashish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan quyidagilarga qaror qilindi:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son [Farmoni](#) bilan ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari miqdoridagi bir martalik nafaqa pulini uni tayinlashning amaldagi tartibi saqlab qolinganda, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali to'lash belgilangan;

— Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga bir martalik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.

Shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

a) nafaqa tayinlash uchun murojaat qilish, murojaatlarni ko'rib chiqish va nafaqa tayinlash "E-probatsiya" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi;

b) nafaqa tuman (shahar) probatsiya bo'linmalari tomonidan tayinlanadi hamda respublika budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan to'lanadi;

v) tayinlangan nafaqa "E-probatsiya" axborot tizimi orqali taqdim etilgan ma'lumotlar asosida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — "Yagona reyestr" AT) orqali to'lanadi.

Bunda:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan har oyning 2-sanasiga qadar o'tgan oyda to'langan

³ "Oila va xotin-qizlar" Ilmiy-Tadqiqot Instituti "Jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish choralari ko'rishda davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalarining hamkorligini tashkil yetish" Tahliliy Ma'lumotnoma, Toshkent-2023



nafaqalarning umumiy summasidan kam bo'lmagan miqdordagi mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilgan tijorat banki yoki boshqa ixtisoslashgan tashkilot hisobvarag'iga o'tkazib beriladi;

—jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning murojaatiga asosan “Yagona reyestr” AT orqali elektron yuborilgan to'lov qaydnomalariga muvofiq nafaqa tijorat banki tomonidan naqd pul shaklida to'lanadi yoki ularda mavjud bank kartalariga o'tkazib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Agentlik bilan birgalikda 2025-yil 1-sentabrga qadar “E-probatsiya” axborot tizimi “Yagona reyestr” ATga integratsiya qilinishini hamda “E-probatsiya” axborot tizimi orqali nafaqa tayinlash bo'yicha murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va tayinlashning barcha texnik imkoniyatlarini yaratish choralarini ko'rishi belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bir oy muddatda belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari parametrlarida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga bir martalik nafaqa to'lash maqsadlari uchun 2025-yilda ko'zda tutilgan mablag'lar Agentlik hududiy boshqarmalariga o'tkazib berilishini, 2026-yildan boshlab har yili ushbu bandda nazarda tutilgan maqsadlar uchun tegishli mablag'lar Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilishi ta'minlangan

Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-iyuldagi 318-F-son farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanib, ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A. Qo'chqorov hamda ichki ishlar vaziri A.A. Tashpulatov zimmasiga yuklatilgan⁴.

5-sentyabr kuni hukumatning «Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi⁵. Hujjatga ko'ra, 1-oktyabrdan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga bir martalik subsidiya ajratiladi. U har bir shaxs uchun 3 oydan ortiq muddatda mehnat faoliyatini davom ettirgandan so'ng BHM ning 3 baravari (990 ming so'm) miqdorida beriladi.

Byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav (fondi) kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno.

Shuningdek, mazkur sanadan quyidagilar yo'lga qo'yiladi:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.07.2025 yildagi 444-son

⁵ Adliya vazirligi matbuot xizmati.



— «Ishga marhamat» monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish;

— jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni tashkilotlardagi mavjud bo'sh (vakant) hamda zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish tizimi.

Ish beruvchilar subsidiya olish uchun tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga yozma ravishda yoki my.gov.uz orqali murojaat qiladi.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-yanvargacha tadbirkorlarga jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning nazoratda bo'lgan (probatsiya) davrida mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qaytarib berish tizimi joriy etiladi.

Prezidentning 27-martdagi [PQ-117-son](#) Qaroriga muvofiq, jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan yoshlarni zamonaviy raqamli kasblarga o'qitish tizimi joriy etiladi. Hujjat ularning ozodlikka chiqqanidan keyin jamiyatga moslashishi, bandligini ta'minlash va takroriy jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan.

Qaror 18–30 yoshdagi mahkumlarga tatbiq etiladi. Ularni mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirish, sifatli ta'lim berish va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni egallash imkonini yaratish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, ularni zamonaviy raqamli kasblarni o'zlashtirishi uchun xorijiy tillarga o'qitish ham ko'zda tutilgan.

Qaror bilan Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Kasbiy ta'lim agentligi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan «Ikkinchi imkon» ijtimoiy reabilitatsiya milliy loyihasi amalga oshirilishi belgilandi.

Loyiha doirasida o'quv kurslari jazoni ijro etish muassasalarida 8–12 oylik intensiv dasturlar asosida tashkil etiladi. Ularda ishtirok etuvchilar zamonaviy raqamli kasblar bilan birga ingliz, rus, xitoy kabi xorijiy tillarni ham o'rganadi. Guruhlar mahkumlarning qiziqishi va iste'dodidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi, o'quv yakunida esa elektron sertifikatlar beriladi.

Jazoni o'tayotgan yoshlarning qiziqishlari va iste'dodi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Kasbiy ta'lim agentligi, Yoshlar ishlari agentligi vakillari hamda sohaning boshqa mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladigan ishchi guruhning o'rganishlari natijasida aniqlanadi.



O'quv kurslariga ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir va og'ir jinoyat sodir etgan yoshlar jalb qilinadi. Bunda axborot texnologiyalari yordamida jinoyat sodir etgan shaxslar istisno qilinadi⁶.

Loyiha dastlab 2026-yil 1-iyundan boshlab Toshkent, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida joriy etiladi. 2027-yil 1-martdan esa u respublikaning boshqa hududlarida ham bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi.

Qarorga ko'ra, loyiha doirasidagi asosiy xarajatlarni Unicon-Soft kompaniyasi o'z mablag'lari hisobidan qoplaydi. Jumladan, o'quv xonalarini jihozlash, kompyuter texnikasi, elektron doskalar, mebel, o'quv adabiyotlari va pedagoglar mehnatiga haq to'lash xarajatlari shu manba hisobiga amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, internet tarmog'idan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. O'quv binolarini saqlash, kommunal xizmatlar va boshqa xarajatlar esa jazoni ijro etish muassasalarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan qoplanadi.

Ichki ishlar vazirligi sertifikat olgan yoshlarni ular egallagan kasblari bo'yicha xizmat ko'rsatish ishlariga jalb qilish choralarini ko'radi. Shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Unicon-Soft kompaniyasi hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ularni ozodlikka chiqqanidan so'ng ish bilan ta'minlashga ko'maklashiladi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi o'quv jarayoni uchun xavfsiz internet muhiti va maxsus ta'lim platformalarini joriy etishga mas'ul bo'ladi. Kasbiy ta'lim agentligi esa ikki oy muddatda o'qitiladigan kasblar ro'yxati va o'quv dasturlarini ishlab chiqadi.

Ichki ishlar vazirligi qisqa muddatlarda o'quv xonalarini tayyorlash, sanitariya talablariga javob beradigan binolar ajratish va loyihani amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi. Shuningdek, ijtimoiy himoya idoralari bilan birgalikda ozod etilgan yoshlarning uy-joy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganib, ularni qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqadi.

Qaror ijrosi uchun shaxsan ichki ishlar vaziri mas'ul etib belgilangan. Nazorat esa bosh vazir va prezident administratsiyasi mas'ullari zimmasiga yuklangan.

Avvalroq prezident jazoni ijro etish muassasalarida muddat o'tayotgan ayollar uchun kasb-hunar o'rganish va oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lim olish

⁶ 2026-yil 30-mart, www.gazeta.uz



imkoniyatlari yaratilishini [ma'lum qilgan edi](#). Uning so'zlariga ko'ra, 2589 nafar mahkum ayoldan 443 nafari allaqachon oliy ma'lumot olish istagini bildirgan.

Eslatib o'tamiz, 2025-yil oxirida prezidentga Unicon-Soft IT kompaniyasi faoliyati [taqdim etilgan edi](#). O'shanda ma'lum qilinganidek, 2017-yilda tashkil etilgan kompaniya butun mamlakat bo'ylab 70 dan ortiq axborot tizimlarini ishlab chiqqan va joriy etgan. Kompaniyaning barcha viloyatlarda va mamlakat bo'ylab 208 ta tuman va shaharlarda axborot tizimlarini joriy etuvchi va texnik qo'llab-quvvatlovchi filiallari mavjud. Unda 1500 dan ortiq xodim ishlaydi, ularning 80 foizi yoshlar⁷.

Quyidagilar jazoni ijro etish muassasalarida ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan 18 — 30 yoshdagi mahkumlarni (keyingi o'rinlarda — jazoni o'tayotgan yoshlar) zamonaviy raqamli kasblarga o'qitishning asosiy maqsadlari etib belgilangan:

(a) jazoni o'tayotgan yoshlarni o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan va mustaqil fikrleydigan shaxs sifatida shakllantirish;

(b) tasdiqlangan o'quv dasturlari doirasida jazoni o'tayotgan yoshlar sifatli bilim olishi va zamonaviy raqamli kasblarga ega bo'lishini ta'minlash;

(v) jazoni o'tayotgan yoshlar zamonaviy raqamli kasblarni egallashi uchun ularni zarur darajada xorijiy tillarga (ingliz, rus, xitoy va boshqalar) o'qitish;

(g) jazoni o'tayotgan yoshlar jazodan ozod etilganidan so'ng ularni jamiyatga integratsiya qilish maqsadida mehnat bozorida talab etiladigan kasblarni egallashi uchun ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash;

(d) jazoni o'tayotgan yoshlarni kasbga yo'naltirish orqali individual rivojlantirish, ularda jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish⁸.

Raqamli texnologiyalar vazirligiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

— Ichki ishlar vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda o'quv kurslarini tashkil etish uchun xavfsiz internet muhiti va maxsus lokal ta'lim platformalaridan foydalanilishini hamda boshqa axborot xavfsizligiga oid chora-tadbirlar amalga oshirilishini belgilangan tartibda ta'minlash;

— Kasbiy ta'lim agentligi, Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda o'quv kurslarida o'qitiladigan kasblarning ro'yxati va o'quv kurslarining o'quv dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlash.

⁷ www.gazeta.uz 2026-yil 30-mart

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.03.2026 yildagi PQ-117-son

Ichki ishlar vazirligiga zimmasiga quyidagilar yuklatilgan:

— o‘n kun muddatda o‘quv kurslarini tashkil etish uchun jazoni ijro etish muassasalaridan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, standartlarga mos binolar (xonalar) ajratilishini ta‘minlash;

— 2026-yil 1-mayga qadar “Unicon-Soft” MCHJga jazoni ijro etish muassasalarining o‘quv kurslari o‘tkaziladigan bino (xona)larini tayyorlash bilan bog‘liq barcha tadbirlar amalga oshirilishini ta‘minlasin hamda kelgusida o‘quv kurslarini o‘tkazish bilan bog‘liq masalalarda har tomonlama ko‘maklashib borish;

— Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yolg‘iz yoshlarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishni ta‘minlash maqsadida ularning ijtimoiy muammolarini, shu jumladan, uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rgansin hamda vaqtinchalik uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

— Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish⁹.

Mahallalarda Jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod qilingan xotinsizlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish choralarini ko‘rishda davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalarining hamkorligini tashkil yetish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi: - Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tizimida jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatga moslashtirish maqsadida qo‘mita huzurida xayriya jamg‘armasini tashkil etish zarur. - Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlarida mahalliy byudjetlar hisobidan JIEM dan qaytgan xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilish zarur. - Jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish ishlarini jadallashtirish maqsadida bepul ishonch telefonlarini ishga tushirish. - Jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni mehnat bozorida imkoniyatlarini oshirish maqsadida axloq tuzatish muassasalarida soliqlardan qisman ozod etilgan kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish zarur. - Jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.03.2026 yildagi PQ-117-son



qilingan xotin-qizlarni kasbiy qayta tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish lozim. - Jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida vaqtinchalik ijtimoiy uylar bilan ta'minlash va ularga imtiyozli uy-joyga ega bo'lish paketini taqdim etish zarur¹⁰.



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

¹⁰ D. Mirzarayimov O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari

